

УДК: 332.1:338.48

Yuldashev Kamol Sharifovich

**Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi
o'qituvchisi, i.f.f.d (PhD)**

Buxoro davlat universiteti,

kamolyuldashev1987@gmail.com

BUXORO VILOYATIDA MUSTAQIL TURIZM UCHUN BAND QILISH MARKAZLARINI ("RESERVATION CENTER") YARATISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda, xususan Buxoro viloyatida mustaqil turistlar uchun mavjud turizm infratuzilmasining holati va uning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan hamda sayyohlarning turistik shaharlar bo'ylab erkin harakatlanishini ta'minlash maqsadida "Reservation Center" (band qilish markazlari) ni tashkil etish konsepsiyasi taklif etilgan. Shuningdek, ushbu markazlarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlari va loyiha yechimlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil turistlar, mini-ekskursiyalar, tezkor band qilish (rezervatsiya), turizm infratuzilmasini raqamlashtirish, Reservation Center (RC), xizmatlar diversifikatsiyasi.

Kirish. Bugungi kunga kelib mamlakatimizda turizm sohasida faoliyat olib borayotgan barcha dahldor amaldorlar va tashkilotlar oldida barcha kategoriyadagi turistlar jumladan, mustaqil turistlar oqimini barqaror o'sishini ta'minlashda unga moslashtirilgan ustuvor yo'nalishlarni tashkil etish, infratuzilmalarni zamonaviylashtirish va raqamlashtirish, turoperatorlar, turagentlar hamda milliy korxonalar integratsiyalashuvini ta'minlash, xizmatlar sifatini oshirish kabi katta vazifalar turmoqda. Mustaqil turistlar asosan noodatiy sayohat turlarini tashkil etishini inobatga olsak kelajakda mamlakatimizda milliy resurslardan kelib chiqib, aynan mustaqil turistlar nigohida ustuvor sanalgan yo'nalishlarni tashkil etish, unga yondashgan turistik mahsulotlarni yaratish zarurati tug'ilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023-yil 26-aprel, PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorida *Respublikaning turizm salohiyatidan to'liq va samarali foydalanish, birinchi navbatda transport-logistika va mavjud resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hisobiga turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga*¹ alohida urg'u berilgan bo'lib, ushbu qaror turli xil kategoriyadagi turistlar jumladan, mustaqil turistlar segmentiga moslashtirilgan xizmatlar ko'rsatishni zamonaviylashtirish masalasining muhimligidan dalolat beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu mavzuga oid turli xil olimlar o'z tadqiqotlarini olib borishgan xususan, [Greg Richards](#), Julie Wilson, Kholadi Tlabela, Anneli Douglas, Galina Myskiv, Sylwia Nycz-Wojtan, Barbora Iannaccone, Marieta Šoltésová, Mário Molokáč, Loker-Murphy, L. Pearce, Juan Luis Nicolau, Kenneth, Bianchi, C, A. N. Hakam, Chow-Hou Wee, Carolyn Yang, James, Alexandra, M.S., Caprioglio O'Reilly, Camille, Dr Hayley Stainton, Rosemary Neave, Christoff, Janeen, Gareth Hanrahan, Milagros Fernández-Herrero, Rosa M. Hernández-Maestro & Óscar González-Benito, Piero Innocenti, Jamie Harper, Ed. Erin Mack Kin, I. Patterson, Sh. Pegg, R. Mahadevan, Compagni Portis, Julian, K. Wiweka, S. S. Wachyuni, S. Prasintya Simawang, P. Adnyana, Stanculescu Gabriela Cecilia, Elisabeta Ilona Molnar, Magdalena Bunghez, Ana Figueroa kabilardir.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023 yil 26 aprel, PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida, <https://lex.uz/docs/-6456786>.

[Greg Richards](#) va Julie Wilson mustaqil turistlar hatti-harakati, ularning xulq-atvori, qanday turizm turlarni tanlashi va aynan qaysi turistik xizmatlardan ko'proq foydalanishi haqida o'rganib chiqqan. Bundan tashqari Loker-Murphy, L., & Pearce, P. L.¹ mustaqil, byudjetli turistlar segmentining kelib chiqishi va xulq-atvori; infratuzilma ehtiyojlari (arzon turar joy, moslashuvchan marshrut) nuqtai nazaridan klassik tasniflashni ishlab chiqqan bo'lsa-da, Scheyvens, R.² Bekpekerlar oqimi rivojlanayotgan mamlakatlarda xizmatlar tarmog'ini (hostellar, transport, mahalliy tajribalar) rag'batlantirishi mumkinligini tahlil qilgan. Martins, M. R.³ esa "Backpacker" va "independent tourist" tushunchalarini zamonaviylashtirgan holda destinatsiya infratuzilmasi uchun segmentatsiya mezonlarini aniqlagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida mustaqil turistlar ko'p tashrif buyuradigan xorijiy mamlakatlar va unda mavjud infratuzilma holati tahlil qilindi. Maqolani tayyorlashda ilmiy-nazariy yondashuv, kuzatish hamda tanlab olish, shuningdek, empirik kuzatuv usullaridan foydalanildi. Natijalarning ishonchliligi xorijiy rasmiy statistik ma'lumotlar va BJTTning rasmiy manbalariga tayanilgani bilan ta'minlanadi.

Tahlil va natijalar. Oxirgi 2023-yildagi statistik ma'lumotlarni e'tibotga oladigan bo'lsak, mamlakatimizga tashrif buyurayotgan xorijiy turistlarning demografik ko'rsatkichlari o'zgarib borayotganini kuzatish mumkin. Misol uchun, 2023-yilda 49,6 %ini 31 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan kishilarni tashkil etgan, Bundan tashqari, 723,3 ming kishi 18 yoshgacha, 846,5 ming nafari 19 yoshdan 30 yoshgacha va 1069,6 ming nafari 50 yoshdan yuqori bo'lgan xorijiy turistlardan iborat bo'ldi⁴. Xorijiy mamlakatlar kesimida esa umumiy 2023-yil hisobida tashrif buyurgan turistlar soni 6,6 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, shulardan deyarli 90%i qo'shni davlatlarga to'g'ri kelmoqda. Xususan, Tojikistondan 2,15 mln (49,6% yillik o'sish), Qirg'izistondan 1,75 mln (30,1% yillik o'sish), Qozog'iston 1,33 mln (14% ga pasayish), Rossiyadan 714,3 ming (25,8% yillik o'sish), Turkmaniston 100,3 ming (10 baravarga o'sish) kishini tashkil etdi⁵. Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, mamlakatga tashrif buyurayotgan turistlar orasida yosh avlod vakillarining soni ham keskin ravishda o'sib bormoqda. Z avlod vakillari internet va protativ raqamli texnologiyalar muhitida ulg'ayganini inobatga olib, X va Y avlodiga mansub vakillariga nisbatan erkin sayohat qilishga, aktiv turlarni tanlashga, vaziyatga qarab fikrlarini o'zgartirishga va tez qarorlarni qabul qilish bilan farqlanadi. Qo'shni davlatlardan tashrif buyurgan turistlarning asosiy qismi esa vositachilar yordamisiz mustaqil ravishda amalga oshirishgan bo'lib, maqsad jihatdan yaqin qarindoshlarnikiga mehmondorchilikka, shaxsiy avtomobillarida turistik shaharlarda qisqa muddatli sayohatni amalga oshirishdan iborat. Ushbu turistlarni turoperatorlar xizmatidan foydalanmasdan mustaqil sayohat qilishga undagan sabab esa, Markaziy Osiyo mamlakatlarining turkiy hamda rus zabonida bimalol suhbatlasha olishi, kerakli xizmatlarni mahalliy aholidan qiyinchiliksiz suhbat o'rnatish orqali so'rab olish imkoniyati mavjudligidadir.

Asosan turoperatorlar orqali tashrif buyuradigan xorijiy turistlar mamlakatlar kesimida 2023-yildagi statistikasiga e'tibor beradigan bo'lsak, Germaniya 29,6 ming (+67,2%), Italiya 25,6 ming (+2,9%), AQSH 23 ming (+75,5%), Fransiya 18,6 ming (+69%), Buyuk Britaniya 16,2 ming (+54,2%), Ispaniya 15,2 ming (+2,41), Belarusiya 15,1 ming (+10,2%), Ozarbayjon 14,7 ming (+41,3%), Yaponiya 12,4 ming, Hindiston 45,5 ming (+2,7 baravar), Xitoy 42,5 ming (+7,8 baravar), Janubiy Koreya 37,1 ming (86,1%), Turkiya 106,5 ming (10 baravarga o'sish)⁶ tashkil etdi. Ushbu ro'yxatdan faqat Hindiston (o'qish maqsadida kelgan talabalar hisobiga o'sdi) hamda Xitoy (qo'shma korxonalarni tashkil etsih va unda faoliyat olib borish hisobida o'sishi) mamlakatlaridan tashqari barcha davrlarning 70% idan ortig'i uyushtirilgan turistlardan iborat (1.1-jadval).

¹ Laurie Loker-Murphy, Philip L. Pearce, Young budget travelers: Backpackers in Australia, *Annals of Tourism Research*, Volume 22, Issue 4, 1995, Pages 819-843.

² Scheyvens, R., Backpacker tourism and Third World development, *Annals of Tourism Research*, Volume 29, Issue 1, January 2002, Pages 144-164.

³ Márcio Ribeiro Martins, Rui Augusto Costa, Backpacker conceptualization criteria: discussion, clarification and operationalization proposal, *International Journal of Tourism Cities*, Volume 9, Issue 1, 16 March 2023.

⁴ <https://uzbekistan.travel/uz/sayyohlarning-kelishi/>

⁵ <https://stat.uz/files/425/choraklik-natijalar-yanvar-dekabr2023ru/3143/18-.pdf>

⁶ <https://stat.uz/files/425/choraklik-natijalar-yanvar-dekabr2023ru/3143/18-.pdf>

1.1-jadval

Buxoro viloyatida turizm sohasi ko'rsatkichlari¹


Ko'rsatkichlar	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 Yil	2022 yil	2023 yil	2024 Iyul
Tashrif buyurgan turistlar soni	1 452 125	2 512 038	3 640 918	249 927	2 265 389	3 513 794	4 877 764	3 235 325
Xorijiy turistlar soni, jumladan:	169 617	301 538	603 084	13 325	48 924	552 652	1 387 830	760 020
Yevropa davlatlaridan	82 291	173 209	242 309	1 282	10 284	135 924	285 515	157 529
Amerika qit'asidan	12 946	19 661	25 614	348	1 888	12 478	24 150	14 745
Osiyo qit'asidan	52 591	71 584	136 863	5 057	12 881	103 479	281 756	150 004
MDH mamlakatlaridan	19 435	33 383	118 998	6 503	23 005	298 457	790 879	433 211
Boshqalar	2 354	3 701	18 923	135	866	2 314	5 530	4 531
Mahalliy turistlar soni, jumladan:	1 100 348	2 210 500	3 037 834	236 602	2 216 465	2 961 142	3 489 964	2 475 305
Turistik kompaniyalar orqali kelganlar	157 908	840 345	633 626	43 310	351 325	348 996	326 788	247 531
Mustaqil tartibda kelganlar	942 440	1 370 155	2 241 013	193 292	1 865 140	2 665 028	3 140 968	2 227 775
Xorijiy turistlar bo'yicha tushum (xizmatlar eksporti,) mln AQSH dollar	37,2	87,2	136,1	5,3	11,4	138,2	339,1	190,0
Mahalliy sayyohlar bo'yicha tushum, jami mlrd, so'm	27,004	31,765	66,161	29,6	399,0	533,0	628,1	495,1

¹ Buxoro viloyati turizm boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ushbu statistik ma'lumotlarda tashrif buyurgan xorijiy turistlarning katta qismi qo'shni davlatlarga to'g'ri kelmoqda. Mahalliy sayyohlar xorijiy turistlarga nisbatan barcha yillarda deyarli 3 baravar ko'proq tashrif buyurishgan. Mahalliy sayyohlarning 89% i mustaqil tashrif buyurgan bo'lsa, xorijiy turistlardan 23% i turoperatorlar orqali o'z sayohatlarini amalga oshirishgan. Mamlakatimizdagi aksariyat turistik xizmatlar turoperatorlar va turagentlar orqali keladigan turistlar kategoriyasiga moslashtirilgan ya'ni, sayohat davomiyligi va boradigan manzillari oldindan belgilab qo'yilgan. Bir necha yillar davomida ushbu xizmat turi barqaror ravishda davom etib kelmoqda.

Oxirgi yillarda ko'plab mamlakatlar uchun viza siyosatining yumshatilishi va raqamli texnologiyalarning keskin ravishda rivojlanishi mamlakatimizga turoperator va turagentlar yordamisiz tashrif buyurayotgan mustaqil turistlar oqimining oshib borishi natijasida, keyingi vazifamiz sifatida aynan ularning kategoriyasiga nisbatan infratuzilmalarni rivojlantirish zarurati tug'ilmoqda.

Mustaqil turistlar asosiy xizmatlarini ya'ni, avia va temir yo'l chiptalari hamda mehmonxona xizmatlarini onlayn band qilish tizimlari orqali band qilishini inobatga olsak, ularga aynan tutistik hududlarga yetib kelgach turistik obyektlar bo'ylab qisqa masofali turlarni tashkil etib berishimiz lozim. Mustaqil turistlar maqsadidan kelib chiqib ya'ni, qisqa (qo'shni davlatlardan kelgan turistlar) va uzoq (Yevropa va Amerika qit'asidan) muddatga qolishni xohlovchilar mikro darajadagi ekskursiyalarni (3 soatdan 10 soatgacha davom etadigan) sotib olishga moyil bo'lishadi. Ushbu xizmatlar turizm sohasi rivojlangan mamlakatlar Indonesiya (Bali), Turkiya, Singapur, AQSH, Misr, Taylandda rivojlangan. Ushbu konsepsiyani mahalliy olimlardan N.S. Ibragimov o'z dissertatsiyasida ilgari surib, bunday turistik tashkilotlarni "mahalliy turagent" deb nomlagan, va ularning asosiy maqsadi mahalliy sayohatchilarga mini turlarni taklif etishdan iborat bo'lgan, ammo bizning fikrimizcha hozirgi davrdan kelib chiqib, ushbu turagentlar nafaqat mahalliy turistlarga balkim, hozirda xorijiy mustaqil turistlar kategoriyasining oqimi oshib borayotgan bir paytda ularga ham mos ravishda mini turlarni taklif etadigan faoliyat bilan shug'ullanadigan band qilish markazlarini tashkil etish lozim. Biz taklif qilmoqchi bo'lgan markazlar ham mahalliy ham xorijiy turistlarga faoliyat ko'rsatishini inobatga olib markazlar nomlanishini ingliz zabonda **"Reservation Center"** (RC) deb nomladik. Ularning asosiy faoliyati turoperator tomonidan taklif etiladigan makro ko'lamdagi turpaketlarni emas, balkim faoliyat olib borayotgan hududda turistlarning maqsadidan va mavjud turistik resurslardan kelib chiqib, bir kunlik mini ekskursiyalarni tashkil etishdan iborat. Bundan xulosa qilish mumkinki, keyingi bosqichda mamlakatimiz turistik hududlarida aynan, aeroport, temir yo'l, turistik obyektlar atrofida hududiy turagentlar faoliyatini tashkil etish zarurati tug'ilmoqda. Biz taklif etmoqchi bo'lgan **RC** joylashishi mahalliy hamda xorijiy turistlar ko'p tashrif buyuradigan joylar ya'ni, Buxoro shahriga kirib kelish punktlari, (aeroport, temir yo'l vokzali) turistik obyektlar atrofi, eski shaharga kirish joylarida faoliyatni tashkil etish ko'zda tutilmoqda (1.1-rasm).



1.1-rasm. "Reservation Center" Buxoro hududi bo'ylab joylashuvi¹

¹ Muallif ishlanmasi

Ushbu band qilish markazlarini tashkil etishning asosiy maqsadi faqat tarixiy obidalaridan tashkil etilgan makro darajadagi turpaketlar emas, balkim mavjud resurslardan kelib chiqib, eko turizm, agro turizm, ko'ngilochar, sog'lomlashtrish, ekstrimal hamda plyaj kabi bir kunlik mikro turlarni tashkil etishdan iborat bo'lsa, keyingi maqsad mustaqil turistlar hududga tashrif buyurgandan so'ng turistik obyektlar, diqqatga sazovor joylarni sarson bo'lib qidirmasdan, rejalashtirilgan vaqtlaridan unumli foydalanishi hamda mahalliy va xorijiy nazaridan chetga qolib ketayotgan obyektlarni ham faoliyatini jonlantirish, ularni faol reklama qilish ko'zda tutilgan. Biz ushbu mini ekskursiyalar ro'yxatini Buxoroda mavjud turistik resurslardan kelib chiqib, 1.2-jadval shakllantirdik.

1.2-jadval

Buxoro shahri bo'ylab qisqa muddatli ekskursiyalar ro'yxati¹

№	Yo'nalish	Kategoriya	Davomiyligi	Turistlar soni	Narx (AQSH dollar)
1	Eski shahar-Moxi-xosa-Bahovuddin Naqshband	Ekonom	1-3 soat	1-2	40
		Premium			55
2	To'dako'l suv ombori	Ekonom	3-6 soat	1-2	50
		Premium			78
3	Bukhara Desert Oasis & Spa	Ekonom	3-6 soat	1-2	85
		Premium			105
4	Vobkent, Shirin qishlog'idagi, etno turizm markazi	Ekonom	2-3 soat	1-2	92
		Premium			112
5	Qorako'l, Poykent muzeyi	Ekonom	1-3 soat	1-2	93
		Premium			115
6	Eski shahar bo'ylab ekskursiya	Ekonom	4-5 soat	1-2	99
		Premium			132
7	Jayron eko markaz	Ekonom	2-3 soat	1-2	110
		Premium			132
8	G'ijduvon kulolchilik muzeyi	Ekonom	3-4 soat	1-2	93,5
		Premium			115
9	Varnet botanika bog'i	Ekonom	2-2,5 soat	1-2	60
		Premium			82
10	7 pir bo'ylab ziyorat	Ekonom	5-6 soat	1-2	160
		Premium			181
11	Milliy taomlarni pishirish bo'yicha master klas	Ekonom	2-3 soat	1-2	55
12	Atlantis Pool cho'milish havzasi	Ekonom	2-3 soat	1-2	33

Ushbu ro'yxatdagi qisqa muddatli ekskursiyalar ekonom kategoriyasining o'rtacha narxi 81 AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, premium kategoriya turlar esa 108 AQSH dollarini tashkil etmoqda. Yuqoridagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro shahriga mustaqil tashrif buyurgan turistlar soni 2023-yilda 3 140 968 kishini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2022-yilga (2 665 028) nisbatan 18% ga o'sganini kuzatish mumkin. Turizm qo'mitasi matbuot xizmatining bergan statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda birta turistning o'rtacha xarajatlari 326 AQSH dollarni

¹ Muallif sihlanmasi

tashkil etgan. Mamlakatlar miqyosida esa, Uzoq Sharq va Yevropadan tashrif buyurgan har bir turist oʻrtacha – 1066, MDH dan – 743, qoʻshni davlatlardan esa, 154 dan 257 AQSH dollargacha xarajatni amalga oshirishgan boʻlsa, tunab qolish esa 2 dan 4 kungacha davom etgan¹.

Yuqoridagi tahlil va hisob-kitoblarga tayangan holda, mustaqil turizm yoʻnalishida faoliyat yurituvchi RC band qilish markazlari tomonidan taklif etiladigan mini turlar hamda qoʻshimcha xizmatlar bozor sigʻimi va undan olinadigan daromadlar boʻyicha prognoz ishlab chiqildi. Prognozlash metodikasi sifatida oldingi yillarda kuzatilgan statistik dinamikadan kelib chiqib, mustaqil tashrif buyurayotgan turistlar sonining kelgusi besh yil ichida oʻrtacha yillik 10% surʼatda oʻsishi qabul qilindi. Mini turpaketlar uchun oʻrtacha narx “yuqoridagi jadval”dagi baholashga muvofiq 81 AQSH dollari etib belgilandi. Shundan kelib chiqib, bozor konversiyasi boʻyicha bir nechta qamrov ssenariylari koʻrib chiqildi: agar potensial foydalanuvchilarning atigi 1% i ushbu xizmatlardan foydalansa, 2025-yil yakunida kutilayotgan daromad 3 078 463 ming AQSH dollarini tashkil etadi; qamrov 5% ga yetkazilganda daromad 15 392 314 ming AQSH dollariga, 10% ssenariysida 30 784 627 ming AQSH dollariga, maksimal 15% qamrovda esa 46 176 941 ming AQSH dollariga teng boʻlishi kutiladi (3.5-jadval). Xuddi shu yondashuv 2030-yilgacha ekstrapolyatsiya qilinganda, barqaror tashriflar oqimi hamda potensial foydalanuvchilar bazasining ketma-ket kengayib borishini inobatga olgan holda, keyingi besh yil uchun jami kutilayotgan umumiy daromad 436 425 067 ming AQSH dollarigacha yetadi. Ushbu natijalar RC band qilish markazlarining nafaqat mavjud talabni samarali monetizatsiya qilish, balki turistik firmalar tomonidan eʼtibordan chetda qolayotgan destinatsiyalarni ham bosqichma-bosqich marketing yetukligiga olib chiqish, ularning tanilish darajasi va mashhurligini oshirishda muhim lokomotivga aylanishini koʻrsatadi (1.3-jadval). Mazkur xulosalar RC markazlarining mahsulot portfelini (mini turlar, qoʻshimcha xizmatlar, paketlashtirilgan takliflar) diversifikatsiya qilish, narx-navoni moslashuvchan yuritish va maqsadli kommunikatsiya strategiyalari bilan qoʻllab-quvvatlangan taqdirda yanada mustahkamlanishi kutiladi.

Ushbu **RC** band qilish markazlarining qurilishi turistlar koʻp jamlanadigan joylarda rejalashtirilayotganligi yaʼni asosan eski shahar hududlarida boʻsh oʻrin tigʻizligini inobatga olgan holda, uning hajmi uzunligi 3,5 m, eni 1,2 m va boʻyi 2,7 m dan iborat boʻlishi rejalashtirilmoqda (3.2-rasm). Bundan tashqari **RC** markazlarini tashkil etish va faoliyatini olib borishda tegishli davlat tashkilotlari tomonidan nazoratga olinishi koʻzda tutilgan va tartibga solinishining quyidagi sabablari mavud:

serifikar va litsenziyalash, xorijiy hamda mahalliy turistlar huquqini himoya qilish, firibgarlikni oldini olish, narx va xizmat sifatini nazorat qilish, soliq va moliyaviy nazoratni amalga oshirish kabi omillar ushbu markazlar faoliyatini barqaror samaradorlikka erishishni taʼminlaydi. RC da bir nafar xodim xizmat koʻrsatishni inobatga olgan holda, xizmatlardan bir vaqtning oʻzida bir necha mijoz ushbu xodimning yordamisiz foydalanish imkoniyatini taqdim etib berish maqsadida har ikkila yon tomonidan, ham oldingi qismida led display (elektron tablo) bilan jihozlanishi rejalashtirilmoqda. Unda turistlar mavjud boʻlgan xizmatlar va turlar roʻyxati bilan tanish imkoniyatiga ega boʻlishadi.

¹ <https://repost.uz/>

1.4-jadval

Qisqa muddatli ekskursiyalarni sotishdan olinadigan daromadlar prognozi¹

T/r	Yillar	Jami tashrif	Qamrov 1%		Qamrov 5%		Qamrov 10%		Qamrov 15%	
			Kishi	summa \$	Kishi	summa \$	Kishi	summa \$	kishi	summa \$
1	2025	3 800 571	38 006	3 078 463	190 029	15 392 314	380 057	30 784 627	570 086	46 176 941
2	2026	4 180 628	41 806	3 386 309	209 031	16 931 545	418 063	33 863 090	627 094	50 794 635
3	2027	4 598 691	45 987	3 724 940	229 935	18 624 700	459 869	37 249 399	689 804	55 874 099
4	2028	5 058 560	50 586	4 097 434	252 928	20 487 170	505 856	40 974 339	758 784	61 461 509
5	2029	5 564 416	55 644	4 507 177	278 221	22 535 886	556 442	45 071 773	834 662	67 607 659
6	2030	6 120 858	61 209	4 957 895	306 043	24 789 475	612 086	49 578 950	918 129	74 368 425
Jami		3 591 9759	359 198	29 095 004	1 795 988	145 475 022	3591976	290 950 044	5 387964	436 425 067


¹ Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi



1.2-rasm. “Reservation Center” ning namunaviy ko‘rinishi¹

RC band qilish markazlarining barqaror rivojlanishi, operatsion samaradorligi va moliyaviy natijalariga erishish, avvalo, ularning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ilmiy asosda loyihalash va izchil joriy etishga bog‘liq. Mazkur mexanizm markazning qurilish va joylashtirish strategiyasini (lokatsiya tanlash, infratuzilma va sig‘imni optimallashtirish), uning faoliyatiga ta’sir etuvchi ichki (tashkiliy tuzilma, inson resurslari, raqamli platformalar, xizmat sifati) va tashqi omillarni (bozor kon’yunkturasi, turistik oqimlar dinamikasi, raqobat muhiti, hamkorlar tarmog‘i) tizimli tahlil qilishga tayangan holda shakllantiriladi. Shuningdek, kapital va aylanma mablag‘lar manbalari kombinatsiyasi, naqd oqimlarni boshqarish, narx belgilash va daromadlarni maksimalizatsiya qilishga qaratilgan moliyalashtirish konsepsiyasi bilan bir qatorda, huquqiy-normativ talablarni to‘liq bajarish (ro‘yxatdan o‘tkazish, litsenziyalar, iste’molchi huquqlarini himoya qilish), xodimlarni tanlash va motivatsiya strategiyasi (kompetensiya profillari, KPI va xizmat sifati indikatorlari), integrallashgan marketing va brending siyosati (raqamli reklama, OTA/OTA+ kanal menejmenti, CRM asosidagi sodiqlik dasturlari), hamda texnik ta’minot (onlayn band qilish tizimlari, to‘lov shlyuzlari, kiberxavfsizlik, ma’lumotlar analitikasi)ni qamrab oladi.

¹ Muallif ishlanmasi



rasm. "Reservation Center" (band qilish markazlarini) faoliyatini joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlari¹

Bundan tashqari RC markazlarida faoliyatini olib borishni xohlagan xodimlarga quyidagi mezonlar asosida ruxsat etilishi ko'zda tutilgan:

¹ Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

1. Turizm yo'nalishiga ixtisoslashtirilgan oliy yoki o'rta maxsus ta'lim muassasalarining diplomiga ega bo'lishi maqsadga muvofiq;
2. Turizm sohasida ish tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lishi;
3. Tili bilish darajasi (kamida rus va ingliz tili);
4. Kompyuter va turli xil dasturlar (onlayn banq qilish tizimlari) haqida ko'nikmaga ega bo'lishi kabi talablar ushbu markazlarning xizmat ko'rsatish darajasini oshirish va tezkor aloqani ta'minlashga olib keladi.

Xulosa va takliflar. Demak yuqoridagi tahlil va natijalardan shuni xulosa qilish mumkinki band qilish markazlarining tashil etilishi va faoliyatining samarali yo'lga qo'yilishi va barqaror rivojlanishini ta'minlashda mahalliy turizm boshqarmasi va davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi orqali o'z samarasini topadi. Bundan kelib chiqib band qilish markazlarining tashkil etilishi natijasida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1. Turoperatorlarsiz mustaqil tashrif buyuradigan mahalliy hamda xorijiy turistlarga qulaylik yaratiladi va bu bilan ular hududga kelgandan so'ng faqatgina eski shahar hududini ko'rib ketmasdan yangi joylar, o'zlariga kerakli ma'lumotlar, restoranlar, mehmonxonalar haqida nafaqat ma'lumot olish balkim band qilish imkoniyatiga ham ega bo'lishadi. Bundan tashqari mustaqil turistlar sayohat davomida rejalarini o'zgartirish va o'z vaqtlariga moslashtirish imkoniyati paydo bo'ladi

2. Mini turlarni tashkil etish evaziga turistning sayohat davomiyligini uzaytirish, turoperatorlar nazaridan chetda qolgan va tur paketlar ro'yxatida kiritilmagan obyektlar band qilish markazlari tomonidan reklama qilinadi va turistlar tashrif buyurishi odatiy holga aylanadi va bu bilan ushbu obyektlar atrofida yaxshigina infratuzilma shakllanadi va kelakakda tur paketlar ro'yxatiadgi turistik obyektlar soni kengayadi.

3. Turizm sohasida tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar hamda turizm yo'nalishida tahsil olgan malakali kadrlar ham ushbu band qilish markazlarida xususiy faoliyatlarini tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lishadi va bu bilan ish o'rinlar paydo bo'ladi.

4. Elektron display tablolar orqali turistlar bir vaqtning o'zida bir necha xorijiy tilda ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

5. Turizmda faoliyat olib borayotgan kichik biznes vakillari ya'ni, xostellar, uy mehmonxonalari, taksistlar, suvenir savdo do'konlari, chekka hududlarda eko zonalarida joylashgan restoranlar, qishloq hududida turistlar uchun mo'ljallangan kulolchilik savdo rastalari, shou dasturlarini targ'ib qilish orqali birinchidan, ularning daromadi oshirilishiga erishiladi, ikkinchida turizm xizmatlari diversifikatsilanishiga olib keladi va bu bilan turistik oqimning teng taqsimlanishiga erilishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023 yil 26 aprel, PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida,
2. <https://lex.uz/docs/-6456786>.
3. Laurie Loker-Murphy, Philip L. Pearce, Young budget travelers: Backpackers in Australia, Annals of Tourism Research, Volume 22, Issue 4, 1995, Pages 819-843. _
4. Scheyvens, R., Backpacker tourism and Third World development, Annals of Tourism Research, Volume 29, Issue 1, January 2002, Pages 144-164.
5. Márcio Ribeiro Martins, Rui Augusto Costa, Backpacker conceptualization criteria: discussion, clarification and operationalization proposal, International Journal of Tourism Cities, Volume 9, Issue 1, 16 March 2023.
6. <https://uzbekistan.travel/uz/sayyohlarning-kelishi/>
7. <https://stat.uz/files/425/choraklik-natijalar-yanvar-dekabr2023ru/3143/18-.pdf>
8. <https://stat.uz/files/425/choraklik-natijalar-yanvar-dekabr2023ru/3143/18-.pdf>.
9. Buxoro viloyati turizm boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.
10. <https://repost.uz/>